

KESMOQ- QIRQMOQ, YARALAMOQ - JARAHATLAMOQ HARAKAT FE'LLARI SINONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI (PARALLEL KORPUS MISOLLARI ASOSIDA)

Hasanova Gulhida Abdulaziz qizi

Tayanch doktorant, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

gulhida0898@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21305400>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi harakat fe'llari sinonimlarining leksik-semantik farqlanishi parallel korpus materiallari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda **kesmoq – qirqmoq** hamda **yaralamoq – jarohatlamoq** fe'llari sinonim juftliklari **harakatda anglashilgan voqea tuzilishi, to'ldiruvchi xususiyatlari, harakat bajarilish usuli hamda natijaviylik** kabi semantik komponentlar asosida o'rganiladi. Tahlil natijalari ushbu fe'llarning umumiy semantik yadrosi mavjud bo'lishiga qaramay, voqea tuzilishi, obyekt turi, bajarilish usuli, natijaviylik va pragmatik xususiyatlar jihatidan farqlanishini ko'rsatadi. Kesmoq va qirqmoq fe'llari kesish harakatini bildirsa-da, kesmoq ko'proq jarohat yetkazish yoki keskin uzilish ma'nosini ifodalaydi, qirqmoq esa qisqartirish yoki bir qismini ajratib olish jarayonini bildiradi. Yaralamoq va jarohatlamoq fe'llari ham umumiy "shikast yetkazish" semantik yadrosiga ega bo'lsa-da, uslubiy va baholovchi jihatdan farqlanadi. Yaralamoq ko'proq badiiy va emotsional kontekstlarda qo'llansa, jarohatlamoq rasmiy va terminologik diskursga xosdir.

Kalit so'zlar: harakat fe'llari, sinonimiya, leksik-semantik tahlil, parallel korpus, **harakatda anglashilgan voqea tuzilishi, to'ldiruvchi xususiyatlari**, pragmatik farqlanish

Annotation: This paper examines lexical-semantic distinctions among Uzbek action verb synonyms using parallel corpus data. The study focuses on the synonym pairs *kesmoq – qirqmoq* and *yaralamoq – jarohatlamoq*, analyzing them through semantic components such as event structure, participant structure, manner, and result. The analysis demonstrates that although these verbs share a common semantic core, they differ significantly in event structure, object type, manner of action, resultative meaning, and pragmatic features. While both *kesmoq* and *qirqmoq* denote the act of cutting, *kesmoq* often implies a sharp or damaging action, whereas *qirqmoq* typically refers to trimming or removing part of an object. Similarly, *yaralamoq* and *jarohatlamoq* share the semantic core of causing injury but differ in stylistic and evaluative usage. *Yaralamoq* frequently occurs in literary and emotionally colored contexts, whereas *jarohatlamoq* is commonly used in formal, medical, or legal discourse.

Key words: action verbs, synonymy, lexical semantics, parallel corpus, event structure, participant structure, pragmatic distinctions.

Asosiy matn: Tahlil manbasi sifatida olingan parallel korpusimiz misollari asosida quyidagi xulosalarga keldik. **Kesmoq** va **qirqmoq** fe'llari umumiy "kesish" semantik yadrosiga ega bo'lgan sinonim birliklar hisoblanadi. Biroq ularning denotativ xususiyatlari **harakatda anglashilgan voqea tuzilishi, to'ldiruvchi xususiyatlari va harakat bajarilish usuli hamda natijaviylik** jihatlarida sezilarli farqlarga ega.

Ushbu sinonimlar orasidagi farqlar eng avvalo ularning **harakatda anglashilgan voqea tuzilishida** yaqqol ko'zga tashlanadi. Har ikkala fe'l odatda tugallangan, chegaralangan (telik) voqeani ifodalaydi, chunki ular obyektning holatida yakuniy o'zgarishni nazarda tutadi. Yakuniy nuqta (endpoint) jihatidan **qirqmoq** fe'li ko'proq butundan bir qismning to'liq ajratib olinishi bilan bog'liq tabiiy yakunni bildiradi (masalan, arqon uchini qirqish, butani qirqish). **Kesmoq** esa ba'zan to'liq ajratishni bildirsa-da (ipni kesish), ayrim hollarda faqat kesik hosil bo'lishini, ya'ni obyektning to'liq ajralmasligini ham anglatadi (barmoqni kesish). Davomiylik nuqtai nazaridan **kesmoq** ko'pincha bir martalik, keskin, tez sodir bo'ladigan harakatni bildiradi (masalan, "shart kesdi"). **Qirqmoq** esa ayrim kontekstlarda davomiy jarayonni ifodalashi mumkin, xususan, qirqib o'tirish yoki takroriy ravishda qirqib (soch qirqib) borish ma'nolarida. Takroriylik (iterativlik) semantikasi ham fe'llar orasida farqlanadi: **qirqmoq** parvarish yoki takroriy kesish jarayonida leksik jihatdan takroriylikni nazarda tutishi mumkin, **kesmoq** esa odatda bitta akti bildiradi.

To'ldiruvchi xususiyatlari yoki fe'llarning valentligi ham sinonimlar orasidagi farqlarni sezilarli ekanligini ko'rsatadi. Har ikkala fe'l sintaktik jihatdan o'timli bo'lib, bevosita to'ldiruvchini talab qiladi. Biroq ular qabul qiladigan obyekt turi jihatidan farqlanadi. **Kesmoq** juda keng doiradagi obyektlar bilan qo'llanadi: jismoniy obyektlar (go'sht, yog'och, soch, teri), abstrakt tushunchalar (baxt), hamda muhit bilan bog'liq obyektlar (yorug'lik). **Qirqmoq** esa odatda jismoniy, cho'zilgan yoki biror narsaga birikkan obyektlar bilan qo'llanadi (arqon, to'sin, buta). Metaforik qo'llanishda esa mavjudlik bilan bog'liq birliklarni (umr yillari) bildirishi mumkin. Ta'sirlanganlik (affectedness) darajasi ikkala fe'lda ham yuqori bo'lsa-da, **kesmoq** ko'proq obyektning zaif nuqtasiga zarar yetkazish, jarohat yetkazish ma'nosini kuchliroq ifodalaydi (tomoqni kesish).

Harakatning **bajarilish usuli** jihatidan olib qaralsa, **kesmoq** odatda o'tkir asbob yordamida bajariladigan kesish harakatini bildiradi. Bu yerda o'tkirlik va aniqlik asosiy belgi sifatida namoyon bo'ladi. **Qirqmoq** esa ko'proq ajratish yoki olib tashlash jarayonini anglatadi va ayrim hollarda kuch talab qiluvchi yoki takroriy harakatni bildiradi (masalan, to'sin qirqish). Intensivlik jihatidan **kesmoq** aniqlik va keskinlik bilan bog'liq bo'lsa, **qirqmoq** ba'zan mehnat talab qiluvchi, strukturaviy to'siqni olib tashlash ma'nosini ifodalaydi. Bundan tashqari, faqat **kesmoq** fe'li og'zaki voqeani to'xtatish ma'nosida qo'llanadi ("suhbat kesildi"), ya'ni u nafaqat jismoniy, balki voqeaviy yoki ijtimoiy jarayonning uzilishini ham bildiradi.

Natijaviylik jihatidan **kesmoq** kesik, ajralish yoki to'xtash natijasini beradi (jarohat, ikkiga bo'lingan narsa, to'xtagan suhbat). **Qirqmoq** esa qisqartirish yoki bir qismini olib tashlash natijasini ifodalaydi (qirqilgan buta, qisqartirilgan arqon, umr yillarini "qirqish").

Semantik jihatdan **kesmoq** ko'pincha zarar yoki jarohatni bildiradi, **qirqmoq** esa ko'proq parvarish, texnik xizmat yoki strukturaviy qisqartirish ma'nosida qo'llanadi. Har ikkisi ham odatda doimiy jismoniy o'zgarishni bildiradi, biroq **kesmoq** orqali ifodalangan "suhbat kesildi" kabi holatlar ijtimoiy-voqeaviy o'zgarishni anglatadi.

Sinonim juftlik orasidagi farqlar leksik-pragmatik sathda ham ko'zga tashlanadi. Baholovchi (evaluativ) xususiyat nuqtai nazaridan **kesmoq** ko'pincha neytral yoki salbiy kontekstda uchraydi, ayniqsa zo'ravonlik yoki tahdid mazmunida ("tilingni kesaman", "tomoqni kesish"). **Qirqmoq** esa ish jarayoniga nisbatan neytral bo'lsa-da, ayrim metaforik kontekstlarda kuchli emotsional bo'yoqni oshiradi ("ildizimni qirqaman").

Sinonim juftlik orasidagi farqlar leksik-pragmatik sathda ham ko'zga tashlanadi. Baholovchi (evaluativ) xususiyat nuqtai nazaridan **kesmoq** ko'pincha neytral yoki salbiy kontekstda uchraydi, ayniqsa zo'ravonlik yoki tahdid mazmunida ("tilingni kesaman", "tomoqni kesish"). **Qirqmoq** esa ish jarayoniga nisbatan neytral bo'lsa-da, ayrim metaforik kontekstlarda kuchli emotsional bo'yoqni oshiradi ("ildizimni qirqaman").

1-jadval. Kesmoq va qirqmoq fe'llarining leksik-semantik farqlari

	Semantik ko'rsatkich	Kesmoq	Qirqmoq
I. Fe'l aspektlari	Telik / Atelik	Asosan telik	Asosan telik, butundan qism ajratilishi bilan yakun topadi
	Endpoint xususiyati	To'liq ajratish ham, shunchaki kesik hosil qilish ham mumkin	Odatda to'liq ajratish yoki qismini olib tashlash bilan tugaydi
	Punktual / Durative	Ko'pincha punktual, bir martalik keskin harakat	Davomiy yoki jarayonli bo'lishi mumkin (qirqib o'tirish)
	Takroriylik	Odatda bitta akt	Parvarish yoki doimiy tarzda takrorlanuvchi harakat ma'nosida leksik takroriylik mavjud
II. To'ldiruvchi xususiyatlari	O'timli / O'timsiz	O'timli; bevosita to'ldiruvchi talab qiladi	O'timli; bevosita to'ldiruvchi talab qiladi
	To'ldiruvchi turi	Juda keng: jismoniy (go'sht, teri), abstrakt (suhbat), muhit (yorug'lik)	Asosan jismoniy, cho'zilgan yoki birikkan obyektlar (arqon, buta, to'sin); metaforik: ildiz, umr
	Fe'lning to'ldiruvchiga ta'siri	Yuqori. Jarohatga sabab bo'luvchi, zaif nuqtaga zarar beruvchi	Yuqori. Qisqartirish yoki olib tashlash orqali strukturaviy o'zgarish
III. Leksiklashuv (Manner / Result)	Manner	O'tkir asbob bilan kesish; aniqlik va o'tkirlik	Ajratish, olib tashlash; ba'zan kuch talab qiluvchi yoki takroriy harakat
	Intensivlik	Keskinlik va aniqlik bilan bog'liq	Ba'zan mehnat talab qiluvchi, jarayonli
	Jismoniy / voqeaviy qo'llanish	Jismoniy va voqeaviy (suhbatni kesish)	Faqat jismoniy ajratish bilan bog'liq
	Result	Result-oriented	Result-oriented

	Natija turi	Kesik, ajralish yoki to'xtash (jarohat, bo'linish, suhbatning uzilishi)	Qisqartirish yoki bir qismini olib tashlash (buta, arqon, umr yillari)
	Zarar vs parvarish	Ko'pincha zarar, jarohat semantikasi	Ko'pincha parvarish yoki texnik qisqartirish; ba'zan mavjudlikni yo'qotish
	Natijaning doimiyligi	Odatda doimiy jismoniy o'zgarish; voqeaviy uzilish ham mumkin	Odatda doimiy jismoniy qisqartirish yoki olib tashlash
IV. Baholovchi ma'no	Baholovchi ma'no	Neytral-salbiy; zo'ravonlik va tahdid kontekstida faol	Ish jarayonida neytral; metaforik kontekstda emotsional kuchli

Har ikkala fe'l agent nazoratini va maqsadlilikni bildiradi, biroq ularning qo'llanish sohasi farqlanadi. Masalan, yorug'lik yoki suhbat bilan bog'liq kontekstda **qirqmoq** qo'llanilishi semantik jihatdan noo'rin bo'ladi, chunki u asosan jismoniy ajratish jarayoniga leksik jihatdan bog'langan. Umumiy qilib aytganda, **kesmoq** va **qirqmoq** fe'llari umumiy semantik yadrosi bir xil bo'lishiga qaramay, voqea tuzilishi, obyekt turi, bajarilish usuli, natijaviylik va baholovchi xususiyatlar jihatidan farqlanadi. Ushbu farqlar ularning erkin almashinuvini cheklaydi hamda sinonimlar tizimida ichki semantik farqlanishni namoyon qiladi. **Chopmoq** fe'li ushbu sinonimlar ma'nosida parallel korpus bazasida aniqlanmadi.

Yaralamoq va **jarohatlamog** fe'llari "yaralash, shikast yetkazish" umumiy semantik yadrosiga ega bo'lgan sinonim birliklar hisoblanadi. Biroq ular qo'llanish uslublari, semantik yo'nalishi hamda ifodalaydigan "shikast" turiga ko'ra sezilarli farqlarga ega.

Har ikkala fe'l telik (chegaralangan) voqeani ifodalaydi. Ular sog'lom holatdan jarohatlangan holatga o'tishni bildiruvchi yakuniy holatni nazarda tutadi. Ikkala fe'l ham obekt ustida jismoniy yoki psixologik holat o'zgarishini majburiy tarzda bo'lishini nazarda tutadi. Natijaviy holat "yara" yoki "jarohat" shaklida namoyon bo'ladi.

Ikkala harakatn ham odatda punktual xarakterga ega bo'lib, ma'lum bir zarba yoki hodisa natijasida sodir bo'ladi. Biroq natijaviy holat davomiylikka ishora qilishi mumkin. (Shunday qilib, Lizzi, anglashimcha, opangning yuragi biroz **yaralandi**, – dedi u bir kuni. – Uni mening nomimdan tabriklab qo'y. Davlat rahbari qurbonlarning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik izhor etib, **jarohatlanganlar** tez fursatda sog'ayib ketishini tiladi.)

Har ikkala fe'l o'timli bo'lib, agent (yaralovchi/shikast yetkazuvchi) va patient (yaralangan/shikastlangan shaxs yoki obyekt)ni talab qiladi. Ular ko'pincha majhul nisbatda (yaralandi, jarohatlangan) ham qo'llanadi, bunda agent ko'rsatilmaydi.

Yaralamoq insonlar, tana a'zolari (barmoq, bosh), hayvonlar (kiyik), metaforik obyektlar (yuragi yaralandi). obyektlar bilan qo'llanadi:

Jarohatlamog esa asosan "tan jarohati"olganlik kontekstlaridagi insonlar va tarixiy-ijtimoiy tushunchalar ("ocharchilik davri jarohatlari") bilan qo'llanadi. **Jarohatlamog** abstrakt tarixiy yoki ijtimoiy travmalarni ifodalashda ham faol ishlatiladi. Har ikkala fe'l bemorning

sezilarli darajada, ammo qisman zararlanishini bildiradi. To'liq yo'q qilish emas, balki shikast yetkazish asosiy semantik belgi hisoblanadi.

Har ikkala fe'l natijani namoyon qiluvchi (result-oriented) fe'llar hisoblanadi. Ular zarba berish usulini emas, balki yuzaga kelgan shikast holatini leksikallashtiradi. **Yaralamoq** kesik yoki qonli jarohatni, ba'zan metaforik ruhiy shikastni bildiradi. Kelib chiqqan natijaviy holatdan tiklanish (sog'ayish) mumkin. **Jarohatlamoq** esa ko'proq funksional yoki strukturaviy shikastni bildiradi va ko'pincha tibbiy yoki huquqiy ta'rifga mos keladi. Badiiy matnda esa chuqur ruhiy "travma" ma'nosini anglatishi mumkin.

2-jadval. Yaralamoq va jarohatlamoq fe'llarining leksik-semantik farqlari

	Semantik parametr	Yaralamoq	Jarohatlamoq
I.Fe'l aspektlari	Teliklik	Telik (yakun – yara hosil bo'lishi)	Telik (yakun – jarohat holatiga o'tish)
	Natija turi	Kesik, qonli yara, ruhiy shikast	Tibbiy-huquqiy "jarohat", strukturaviy shikast
II.To'ldiruvchi xususiyatlari	Tur	Inson, tana a'zosi, hayvon, yurak (metafora)	Asosan inson, "tan jarohati", tarixiy-ijtimoiy travma
	Abstrakt qo'llanish	Sevgi iztirobi, ruhiy og'riq	Ocharchilik davri jarohatlari, ijtimoiy travma
IV.Baholovchi ma'no va	Registr	Badiiy, epik, poetik, dramatik	Rasmiy, texnik, huquqiy
	Emotsional yuklama	Kuchli, obrazli, dramatik	Neytral, obyektiv, tibbiy
	Uslub	Badiiy (Jang tasviri, sevgi, poetik metafora)	Rasmiy (Prezident nutqi, qonunchilik, statistika)

Bu ikki fe'l orasidagi eng barqaror farq uslub va baholovchi ma'noda namoyon bo'ladi. Yaralamoq badiiy, epik, romantik kontekstlarda faol. Kuchli emotsional bo'yoqqa ega. Qahramonlik janglari, sevgi iztiroblari, poetik metaforalarda ishlatiladi. Uni "jarohatlamoq" bilan almashtirish poetik intensivlikni pasaytiradi. Jarohatlamoq esa rasmiy, texnik va huquqiy kontekstda standart birlik hisoblanadi. Prezident nutqlari, qonunchilik hujjatlari, ishlab chiqarish xavfsizligi matnlarida uchraydi. Ob'ektiv va klinik xarakterga ega. "Jarohatlar soni", "turli og'irlikdagi tan jarohati" kabi terminologik birikmalarda qo'llanadi. Shunday qilib, **yaralamoq** va **jarohatlamoq** fe'llari umumiy semantik yadrosi "shikast yetkazish" ma'nosiga ega bo'lsa-da, voqea tuzilishi, patient turi, hamda ayniqsa registr va baholovchi yuklama jihatidan farqlanadi. **Yaralamoq** badiiy va emotsional maydonga xos bo'lsa, **jarohatlamoq** rasmiy, texnik va huquqiy diskursda neytral termin sifatida faol ishlatiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alanazi Z. Corpus-based analysis of near-synonymous verbs // Asian-Pacific Journal of

Second and Foreign Language Education. – 2022. – Vol.7(15). – P.1–25.

2. Bonkrathok R. A corpus-based study of the synonyms: Convey and express. – Thammasat University, 2018. – P.1–34.
3. Dowty D.R. Word Meaning and Montague Grammar: The Semantics of Verbs and Times in Generative Semantics and in Montague's PTQ. – Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, 1979.
4. G'ulomov A. Fe'l. Hozirgi o'zbek tili kursidan materiallar. – Toshkent: Fan, 1954. – B.16–56.
5. Muhamedova S.X. O'zbek tilida harakat fe'llarining semantik va valentlik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri diss. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2007. – 325 b.
6. Rothstein S. Structuring Events: A Study in the Semantics of Lexical Aspect. – Oxford: Blackwell Publishing, 2004.
7. Smith C.S. The Parameter of Aspect. – Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1991.
8. Sodiqova M.S. Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l stilistikasi (semantik aspektda): Filol. fan. d-ri diss. – Toshkent, 1991. – 25 b.
9. Vendler Z. Verbs and times // The Philosophical Review. – 1957. – Vol.66(2). – P.143–160.
10. Verkuyl H.J. A Theory of Aspectuality: The Interaction between Temporal and Atemporal Structure. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993.